

"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" ilmiy-intellektual forumi o'z ishini boshladi

// 27 May 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoati-yosh-mutaxassislari-ilmiy-intellektual-forumi->



Bugun "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" ilmiy-intellektual forumi o'z ishini boshladi

Mazkur forumda "O'zkimyosanoat" AJ tizim korxonalari - "Maxam-Chirchiq" AJ, "Navoiyazot" AJ, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ, "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QK, "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ, "Ammofos-Maxam" AJ, "O'zkimyosanoatloyiha" AJlarda faoliyat yuritayotgan yosh kimyogar mutaxassislari, shuningdek, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent kimyo- texnologiya instituti hamda Yangi O'zbekiston universiteti talabalari - jami 200 nafar yoshlar ishtirok etishmoqda.



Dastlab ishtirokchilar D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filialiga tashrif buyurishdi. Ilm dargohida sohaning bo'lajak mutaxassislari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishildi.

Shuningdek, ishtirokchilar Chirchiq kimyo-industrial texnoparkida ham bo'lishdi. Texnoparkda ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishishdi. O'zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassislardan batafsil javoblar olishdi.



Forum Bo'stonliq tumanida joylashgan Yoshlar oromgohida bo'lib o'tadi.

Jarayonlarni kuzatib boring.







"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati